


# YANGI O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

DAVRIYLIGI:  
2018-2023



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



MART  
№50

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
1-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-1**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-1**

**ТОШКЕНТ-2023**



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 50-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 23 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**ХУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ**

<b>1. Сафаров Хуршид Уринқулович</b>	
ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ ЖИНОЯТНИ СОДИР ЭТГАН ШАХСНИ УШЛАШ ХУСУСИЯТЛАРИ .....	7
<b>2. Эргашев Икром Абдурасулович</b>	
СОЛИҚ ТҮҒРИСИДАГИ ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИНИ БУЗГАНЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ-ХУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ .....	9
<b>3. Nodirova Xursanoy Ibragimovna</b>	
ЈАМИYATDA OQILA AYOLNING O'RNI .....	11
<b>4. Муратов Сардорбек</b>	
ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИ - ЭЛГА ХИЗМАТ ЙЎЛИДА .....	13
<b>5. Анварова Дилдора</b>	
ЭҲТИЁЖМАНД ХОТИН-ҚИЗЛАРГА ДАВЛАТ ИЖТИМОИЙ ЁРДАМИНИ БЕРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ ШАРТНОМА МЕХАНИЗМИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШ ЗАРУРИЯТИ .....	15
<b>6. Abdurahmonova Nodiraxon Xusnutdinovna</b>	
DEMOKRATIYA VA HUQUQIY MADANIYAT .....	17
<b>7. Мирзаев Фарходжон Тахирович, Ҳожамуратов Камалатдин Сифадинович</b>	
АЁЛЛАРНИНГ ИМТИЁЗЛИ ШАРТЛАРДА ЁШГА ДОИР ПЕНСИЯ ОЛИШ ХУҚУҚЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	20



## ХУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

### ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ ЖИНОЯТНИ СОДИР ЭТГАН ШАХСНИ УШЛАШ ХУСУСИЯТЛАРИ.

**Сафаров Хуршид Уринқулович**  
Ўзбекистон Республикаси ИИВ  
Академияси мустақил изланувчиси  
Телефон: +998903940031  
rakhimovbobur671@gmail.com

**АННОТАЦИЯ:** мақолада давлат харидлари соҳасидаги жиноят ишлари юзасидан ушлаб туриш процессуал мажбурлов чорасини қўллаш хусусиятлари ҳамда ушлаб туришда аҳамият бериладиган ҳолатлар ҳақида сўз юритилган.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** давлат харидлари, процессуал мажбурлов чораси, ушлаб туриш.

Гумон қилинувчи ва айбланувчиларни ушлаш давлат харидлари соҳасидаги жиноятларнинг тергов қилишнинг оралиқ босқичи бўлиб, жавобгарликни мукаррарлигини таъминлашнинг кафолатидир. Гумон қилинувчиларни ушлаш шахсни унинг жиноий фаолият билан шуғулланишига барҳам бериш, қочиб кетишининг далилларни яшириши ёки йўқ қилиб юборишининг олдини олиш, ушланган шахснинг содир этилган жиноятга алоқдорлигини аниқлаш мақсадида[1] мақсадида кисқа муддатга озодликдан маҳрум қилишдан иборат.

Давлат харидлари соҳасидаги жиноятларни содир этган шахсларни ушлашдан олдин, ушбу шахсни кузатиш, жиноий шерикларини ва яашаш манзилини ўрганиб, тезкор бўлинмалар томонидан олдин тўпланган маълумотларни рўёбга чиқариб, ушлаш билан бир бир қаторда жиноий шерикларини ҳам қўлга олиш, яашаш ва иш жойларида тинтуб ўтказиш орқали қўшимча далилларни тўплашни тақозо этади. Шу сабабли шахсни қўлга олишдан олдин тергов-тезкор гурухи гурухларга бўлиниб, биринчи гурух шахсни ушлаш, шахсий тинтуб ва олиб қўйиш давомида ёнидан нарсалар аниқланса кўздан кечириб, ушлаш билан боғлиқ хужжатларни расмийлаштиrsa, иккинчи гурух ушланувчи шахсни яашаш ва иш жойларига бир вақтнинг ўзидан тинтувлар ўтказиб ишга алоқадор нарса ва хужжатларни олиб қуишилари лозим бўлади. Бунда ушланган шахснинг бошқа жиноятларга алоқадорлигини тасдиқловчи қўшимча далиллар ва маълумотлар тўпланиши мумкин. Бир вақтнинг ўзида бир неча шахс ишда гумон қилинувчи тариқасида жалб қилиниб ушланадиган бўлса, ушлаш жараёнида уларни бир-биридан ажратиб қуиб, мулоқот қилишларини чеклаб қуиши лозим бўлади. Чунки улар келгусида терговда ёлғон кўрсатувлар беришга келишиб, терговни чалғитишлари мумкин.

Гумон қилинувчиларни ушлаш жараёни, албатта видеоёзувни қўллаш орқали амалга оширилиши керак[2]. Бу эса келгусида гумон қилинувчиларнинг тезкор ходим ва терговчини қўпполликда ва ҳар хил тазиикларни қўллагани ҳақида асоссиз айбловларини олдини олади. Бизнинг фикримизча, ушланган шахсни қўлга олиш вақтида унга нисбатан хушмуомилада бўлиб, бирламчи кўрсатмаларини видеотасвирга туширган ҳолда олиш мақсадга мувофиқ. Чунки шахс ушланаётган вақтида психологик жиҳатдан ёлғон кўрсатувлар беришни уйлаб кўрмасдан, тўғри кўрсатмаларни бериш эҳтимоли катта. Бу эса ишнинг тергов йўналишини белгилаб олишда муҳим касб этиши мумкин.

Ушланган шахснинг ёнидан электрон қурилмалар, уяли алоқа телефони аниқланса, уларни синчковлик билан кўздан кечириш зарур. Ушбу қурилмаларда шахсни жиноят содир этганини тасдиқловчи қўшимча далиллар аниқланиб қолиши эҳтимоли катта ҳисобланади.

Давлат харидлари соҳасидаги жиноятлар юзасидан ушлаб туриш дастлабки терговнинг кейинги босқичида амалга оширилади. Чунки шахсни ушлашдан олдин унинг жиноят содир этганлигини тасдиқловчи далиллар тўпланган, тафтиш ва тегишли экспертизалар ўтказилган бўлиши керак. Фақатгина давлат харидлари соҳасидаги шартномалар тузиш учун



шартноманинг маълум бир миқдоридаги пулни «улуш» сифатида олаётган вақтида кўлга олинган вақтда шахсни жиноят ишини қўзғатишдан олдин ёки жиноят ишининг дастлабки босқичида ушлаб туриш мумкин ва ушбу ҳолатда шахсни ушлаш унинг айбини исботлаш нуткаи назаридан анча самаралидир. Қолган ҳолларда шахснинг айбини тасдиқловчи етарли далиллар тўпланганидан сўнг ушлаб турилади.

Шуни қайд этиб ўтиш керакки, шахсни ушлашдан олдин, унинг оилавий ҳолатини ва шахсини ўрганиш зарур. Давлат харидлари соҳасидаги жиноятларнинг субъектлари кўпчилик ҳолларда мансабдор шахслар бўлишлари ёки мансабдор шахслар билан тил бириктириб жиноят содир этганликлари сабабли, улар ушлаб туриш ва қамоқقا олинишига иммунитет хуқуқига эга бўлиши мумкин. Иммунитет хуқуқига эга шахсни ушлаб туриш учун тегишли ташкилотдан ёки юқори турувчи органидан, шунингдек юқори турувчи прокурорнинг розилиги ёки рухсати талаб қилинса, ушбу ҳужжатлаштириш ва розилик билан боғлиқ босқични амалга оширгандан сўнггина ушлаб туришни амалга ошириш керак.

Хуроса ўрнида шуни айтиш мумкинки, давлат харидлари соҳасидаги жиноятлар юзасидан ушлаб туриш процессуал мажбурлов чорасини тўғри ташкиллаштириш ишнинг кейинги тергов ҳаракатларини самарали олиб борилишига хизмат қиласи.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Жиноят-процессуал хуқуқи. Дарслик. У.А.Тухташева бошқа муаллифлар жамоаси. Тошкент давлат юридик университети. –Т.–Б. 86-87.
2. Т.А.Макарова. Использование в ходе предварительного следствия материалов аудио и видеозаписи. Автореф. дис. канд. юрид. наук. –Ижевск. –2004. –С.23.



## СОЛИҚ ТҮҒРИСИДАГИ ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИНИ БУЗГАНЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ-ХУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ

Эргашев Икром Абдурасулович,  
Тошкент давлат юридик  
университети мустақил изланувчisi,  
доцент, юридик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD).  
Email: ikromabdurasulovich@gmail.com

**Аннотация:** ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасида соликқа оид хуқуқбузарликлар учун жавобгарлик масаласи солик ва молия ҳуқуқига доир илмий-назарий адабиётлар, тегишли статистик маълумотлар ва бошқа амалиёт материалларини ўрганиш ҳамда таҳлил қилиш орқали ҳал қилиш муҳим эканлиги таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** соликлар турлари, мажбурий тўловлар, солик мажбурияти, солик тўловчи, жавобгарлик, молиявий жавобгарлик, юридик жавобгарлик.

Мамлакатимизда кўпмулкчиликка асосланган иқтисодиёт вужудга келиши билан мулкчиликнинг турли шакллари пайдо бўлди ва бугунги кунда улар иқтисодиётда эркин фаолият кўрсатиб, даромад келтириш омиллари сифатида тан олинмоқда. Кишилик жамияти ва жаҳон тажрибаси ҳар қандай қонуний даромад қонунчилик асосида давлатнинг зарурий ҳаражатларини қоплаш учун соликқа тортилиши лозимлигини тақозо қиласди. Шундай экан, соликқа оид мажбуриятлар ва ҳуқуқлар мажмуаси солик тўловчилар ва давлат ўртасидаги муносабатларни юзага келтиради.

Солик муносабатлари мамлакатимизда қатор қонунлар билан тартибга солиниб, уларга амал қилмаслик эса соликқа оид хуқуқбузарлик ва унинг учун жавобгарлик тушунчасини юзага келтиради. Бу эса, ўз навбатида, унга қарши курашиш, унинг олдини олиш ва бартараф этишни қонунчилик институти орқали амалга ошириш лозимлигини тақозо этади.

Таъкидлаш жоизки, соликқа оид хуқуқбузарликлар давлат бюджетига, мамлакатнинг иқтисодий хавфсизлигига салбий таъсир кўрсатиб, хуфёна иқтисодиёт қўринишида содир этилади. Хуфёна иқтисодиёт эса, қонуний фаолият юритаётган тадбиркорлик субъектлари ва истеъмолчиларнинг, шунингдек давлатнинг иқтисодий ва молиявий манбаатларига зид равишда амалга оширилади[1].

Ҳуқуқшунос олим А.В.Демин ушбу тушунчага ҳуқуқий таъсир чораси сифатида молиявий санкцияларни қўллаш кўзда тутилган, соликқа оид мажбуриятларини бажармаганлик ёки лозим даражада бажармаганлик учун белгиланган ҳуқуққа хилоф, айбли ҳаракат ёки ҳаракатсизлик [2], дея изоҳ беради. Ҳуқуқшунос олим Л.В.Хван эса, ушбу тушунчага қўйидагича таъриф беради, яъни солик ҳуқуқбузарлиги бўлиб ҳуқуққа хилоф, айбли қилмиш (ҳаракат ёки ҳаракатсизлик) ҳисобланиб, қонунчилик нормаларини бажармаганлик ёки лозим даражада бажармаганликда ифодаланади ҳамда бу учун турли ҳуқук соҳалари қонунчилик актлари билан юридик жавобгарлик назарда тутилган [3].

Э.Т.Хожиев эса, жавобгарлик назарда тутилган ҳамда солик қонунчилиги билан тартибга солинадиган ва қўриқланадиган муносабатларга тажовуз қилувчи ҳуқуққа хилоф, айбли (қасдан ёки эҳтиётсизликдан) содир этилган қилмиш, деб ҳисоблайди.

Биз эса, юкоридагилардан келиб чиқиб ҳамда ҳуқуқшунос олимларнинг фикрларини таҳлил қилиш натижасида, соликқа оид ҳуқуқбузарлик тушунчасининг қўйидаги белгиларини келтириб ўтишимиз мумкин:

- солик қонунчилиги нормалари талабларини бузилганлаги учун фактик асос;
- қилмишнинг ҳуқуққа хилофлилиги;
- қилмишнинг ҳаракат ёки ҳаракатсизликда ифодаланиши;
- қилмишни содир этган шахснинг қасд ёки эҳтиётсизлик шаклидаги айбининг мавжудлиги;
- содир этилган қилмиш учун давлат ва унинг ваколатли органлари ёки мансабдор шахслари томонидан давлат мажбуровларининг қўлланилиши ва бошқалар.

Шунга мувофиқ, мазкур тушунчага қўйидагича таъриф беришни лозим топдик, яъни соликқа оид ҳуқуқбузарлик – бу солик муносабатлари иштирокчиларнинг солик



тўғрисидаги қонун ҳужжатларни бузиши оқибатида молиявий санкциялар назарда тутилган, қасд ёки эҳтиётсизлик натижасида содир этилувчи айбли, ҳуқуқка хилоф қилмиш (ҳаракат ёки ҳаракатсизлик)дир.

Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодексини 210-моддасида солиқ тўловчининг, солиқ агентининг ёки бошқа шахснинг Солиқ кодексда жавобгарлик белгиланган ғайриқонуний айбли қилмиши (ҳаракати ёки ҳаракатсизлиги) солиққа оид ҳуқуқбузарлик деб эътироф этилади.

Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси талабларида эса, солиққа оид ҳуқуқбузарликнинг қуидаги зарурий хусусиятлари келтирилган:

- қилмишнинг ғайриқонунийлиги;
- айбнинг мавжудлиги;
- жавобгарликнинг муқаррарлиги.

Такидлаш жоизки, солиққа оид ҳуқуқбузарлик содир этилганлиги учун жавобгарликни белгилашда унинг юридик таркибининг аниқлаш муҳим масаладир. Ҳуқуқбузарликнинг юридик таркиби тушунчасига таъриф беришдан олдин таркибнинг ўзи нимани англатишига эътибор қаратимоғимиз лозим. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида унга маълум бир бутунликни ташкил қилувчи қисмлар [4] дея изоҳланган. Ҳуқуқшунослиқда мазкур тушунча – ҳуқук билан ўрнатилган ва қилмишни ҳуқуқбузарлик сифатида характерловчи хусусиятлари йиғиндисидир. Шундай қилиб, ҳуқуқбузарликнинг таркиби – бу унинг нималардан ташкил топганлигини кўрсатадиган жамланма тушунча, унинг қисмлари йиғиндисидир [5]. Бунда ҳуқуқбузарликнинг юридик хусусияти ва юридик таркиби тушунчаларини фарқлаш лозим. Мазкур тушунчалар икки хил тушунча бўлиб, яъни, таркиб – бу қилмишни ҳуқуқбузарлик сифатида эътироф этса, юридик хусусиятлар – ҳуқуқбузарликнинг мазмунини очиб беради.

Умуман олганда, солиққа оид ҳуқуқбузарликни содир этган шахснинг айбини аниқлашда қонун ҳужжатлардаги барча ҳолатлар эътиборга олиниши зарур. Шахснинг солиққа оид ҳуқуқбузарлиги учун жавобгарлик масаласи кўриб чиқилаётганда эса қуидагиларга эътибор қаратишни лозим деб ҳисоблаймиз:

**биринчидан**, солиққа оид ҳуқуқбузарлик таркибининг мавжудлигига;

**иккинчидан**, ҳуқуқбузарлик таркиби мавжуд бўлмаган ҳолда солиққа оид ҳуқуқбузарлик учун жавобгарликдан озод қилишга;

**учинчидан**, солиққа оид ҳуқуқбузарлик содир этганликдаги айбини ва уни жавобгарликка тортишни истисно қиласидаган ҳолатларнинг мавжудлигига;

**тўртинчидан**, солиққа оид ҳуқуқбузарлик учун жавобгарликни енгиллаштирувчи ва оғирлаштирувчи ҳолатларга ва ҳакозо.

Амалдаги Солиқ кодексида мазкур ҳолатлар ўз аксини топган.

**Мухтасар қилиб айтсан**, солиқ ҳуқуқбузарлигини содир этган шахснинг айбини аниқлашда қонун ҳужжатларида белгиланган барча ҳолатларнинг эътиборга олиниши жавобгарликнинг янадаadolatli бўлишини таъминлайди. Аммо амалдаги солиқ қонунчилигига айбни аниқлаш хусусиятлари, жумладан унинг шакллари хусусида норма мавжуд эмас. Яъни, қилмиш ҳуқуқбузарлик деб эътироф этилиши учун айбли бўлиши лозим. Айб эса, ўз навбатида қасд ва эҳтиётсизлик каби шакллардан иборат бўлади. Ҳуқуқбузарлик субъектининг қилмишини айблилик масаласини баҳолашда бу асосий воситадир. Шундан келиб чиқиб, мазкур кодексда қилмишнинг қасд ёки эҳтиётсизлик натижасида содир этилишини белгиловчи нормани назарда тутиш лозим деб ҳисоблаймиз. Шундагина солиққа оид ҳуқуқбузарлик учун жавобгарлик чораси янадаadolatli тарзда кўлланилган бўлар эди. Зеро,adolatlilik тамойили қонунчилигимизнинг бош мезонидир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. А.С.Жўраев, Н.А.Ортиков. Солиқ ҳуқуқи асослари. Ўкув кўлланма. –Т.: Илм зиё, 2012. – Б.121.
2. Демин А.В. Налоговое право России. Учебное пособие. – Красноярск, 2006. – С.267.
3. Хван Л.Б. Солиқ ҳуқуқи. –Т., Консаудитинформ, 2001. – Б.118.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. // А.Мадвалиев таҳрири остида. 3-жилд. –Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2007. – Б. 683.
5. Амирор 3.Ҳуқуқбузарлик таркиби обьекти ва обьектив томони масалалари // Олий хўжалик суди ахборотномаси. 2009 йил 7-сон. – Б.44.



## JAMIYATDA OQILA AYOLNING O'RNI

Nodirova Xursanoy Ibragimovna

Toshkent davlat stomatologiya instituti  
akademik litseyi XQK Raisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada zamonaviy ayol oiladagi va jamiyatdagi vazifalariga birdek mas'uliyat bilan qarashi. Mehrbon ayol, ona va oqila rahbar xodim vazifasini a'llo darajada bajara olishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** xotin-qizlar, onalik, zamonaviy ayol, tenglik, oila muqaddas, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, ayolning yashash huquqlari.

Har qanday ijtimoiy tuzilma asosida ayollarning reproduktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi avlodning shakllanishi va rivojlanishida ham ularning o'rni beqiyos. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari mavjud bo'lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir.

Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o'ringa ega bo'lgan O'zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o'rni, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Hech shubhasiz, ayollarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini to'laqonli ta'minlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlar yurtimizda gender tenglikni va teng huquqlilikni ta'minlashdagi ijtimoiyadolat namunasidir.

E'tirof etish kerak, so'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagi rolini kuchaytirish, oila institutini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. O'zbekiston xotin-qizlarni har qanday kamsitish va tahqirlashlardan himoya qiladigan barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shildi. Bunda «Onalikni muhofaza qilish to'g'risida»gi Jeneva Konvensiyasi, «Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida»gi hamda «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi Nyu-York Konvensiyalari, «Birlashgan Millatlar Tashkilotining transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to'ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi» Bayonnomasi kabi xalqaro hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin.

Bugun zamonaviy ayol iborasi tez-tez qulooqqa chalinayozyapti. Xo'sh, zamonaviy ayol, deganda yoshlar qaysi fazilatlari bor xotin-qizlarni ko'z oldimizda qiyofalantiramiz. Zamonaviy ayol oiladagi va jamiyatdagi vazifalariga birdek mas'uliyat bilan qaraydi. Mehrbon ayol, ona va oqila rahbar xodim vazifasini a'llo darajada bajara oladi. Ish bilan birga ayollarga xos pazandalik, sarishtalik, chevarlik, qarindosh-urug'lar bilan munosabatni ham to'g'ri yo'lga qo'ya oladi. Ayol uchun oila muqaddas ekanligini har doim va har on yodida saqlaydi. Shu fazilatlari bilan atrofidagilarga o'rnak bo'la oladi. Zamonaviy ayol iqtisodni ham siyosatni ham yaxshi tushunadi, jarayonlarni to'g'ri tahlil qilib, xulosa chiqara oladi. Tenglik – erkak va ayolning yashash huquqlari, konstitutsiyaviy huquqlari qonun oldida tengdir, degani. Oilada bu huquqlarni inkor etmagan holda ayol va erkak o'rtasida o'zaro munosabatlarda ko'proq oilani moddiy jihatdan ta'minlash, ijtimoiy masalalarga nisbatan javobgarlik mas'uliyati erkakning zimmasiga tushadi. Bilim olish, kasb tanlash, ish joyiga erkin kelib, ketish, o'zi sevgan mashg'ulotini kasbiga aylantirish (chevarchilik, zardo'zlik, kashtachilik, hunarmandchilik, bog'dorchilik, gulchilik) kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanishiga sharoit yaratib berish ham erkaklarning zimmasidadir.

O'zbekning oqila ayoli oilada ham, jamiyatda ham o'z burch va majburiyatlarini yaxshi biladi. Uyda oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesni yo'lga qo'ya oladi, oilasini ish va moddiy mablag' bilan ta'minlab, ko'plab muvaffaqiyatga erishib kelayotgan ko'plab tadbirkor ayollarimizni o'rnak qilib gapirishimiz mumkin.

Har bir sohada fidoyiligi va sadoqati bilan mehnat qilib, yuksak marralarga erishib kelayotgan xotin-qizlarimizning yutuqlari ham salmoqli. Ayni paytda Oliy Majlis Senatida – 17 nafar senator, Qonunchilik palatasida – 21 nafar deputat ayollar faoliyat olib bormoqda. Mahalliy kengashlarda esa xalq vakillarining 23 foizdan ziyodini xotin-qizlar tashkil etadi. Mingdan ortiq ayollar mahalla



fuqarolar yig‘inini boshqarib kelmoqda.

Shunday bo‘lsa-da, o‘zgarish va yangiliklarga boy kechayotgan davr bugun barchamizning oldimizga yangi-yangi talablarni qo‘ymoqda. Prezidentimiz ayni masalaga alohida e’tibor qaratib, Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi ma’ruzasida parlamentda va mahalliy kengashlarda ayollar ulushini ko‘paytirish, ijtimoiy sharoiti og‘ir ayollarni qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni ish bilan ta’mirlash masalalarida nodavlat tashkilotlarning ishtirokini faollashtirish kabi bir qator vazifalarni belgilab berdi. Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan Oliy Majlis Senatida yangi tuzilma – Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha qo‘mita tuzish taklifi ilgari surildi. Bu tuzilma, albatta, mamlakatimiz hayotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularga keng imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bularning barchasi ayol, ona muqaddasligining, ularga e’tibor qaratish jamiyatga e’tibor qaratish ekanining amaldagi isbotidir. Bu tamoyil “Ayollar qanoti”mizning, faoliyatimning asosiy mezonini bo‘lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/ayol-va-uning-jamiyat-hayotidagi-orni-hamisha-muhim-mezon-bolib-kelgan>
2. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/4984>



ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИ - ЭЛГА ХИЗМАТ ЙЎЛИДА

Муратов Сардорбек  
Фарғона шаҳар адлия бўлими  
Давлат хизматлари маркази мутахассиси

**Аннотация:** Ушбу мақолада кейинги йилларда адлия тизимидағи бўлаётган ижобий ўзгаришлар, давлат ва халқ орасидаги муаммо ва тушунмовчиликларнинг олдини олишда давлат хизматлари марказларининг роли ҳақида мулоҳаза юритилган.

**Калит сўзлар:** давлат, халқ, фарзанд, муаммо, оила, давлат хизматлари маркази, сарсонгарчилик, қоғозбозлик, маълумотнома, фуқаро.

Фарзанд туғилса хурсанд бўлмайдиган оила бўлмаса керак. Жажжи фарзандини эсон омон бағрига босганчалик хурсандчиликни тасаввур қилиш жудаям қийин.

Мен бекордан бекорга фарзанд масаласига алоҳида урғу бермадим. Чунки яқин ўтмишда одамларни қийнаб келган муаммо, бугунги кунда жуда осонлик билан давлат хизматларини кўрсатиш соҳасида ҳал этилганлиги қувонарли ҳол.

Ҳомиладорликдан бошлаб туғилгунга қадар бўладиган югур югурлар одамни тинкасини куритади. Шифокорга учра, поликлиникага бор, маҳаллани огоҳлантириб кўй бу бошланиши холос. Бола туғилгандан кейинги ҳолатни тасаввур қилмаса ҳам бўлаверади. Бола туғилиши билан Ўзбекистон Республикаси Конституциясида белгиланганидек ҳуқук лаёқати вужудга келади. Оила Кодексида белгиланганидек Ҳар бир ота-она фарзанди вояга етгунига қадар унга ғамхўрлик қилишга мажбурдир. Шунингдек, катта ёшдаги шахслар фойдаланиши лозим бўлган барча ҳуқуқлардан тенг фойдаланиши амалдаги норматив-ҳуқуқий хужжатларда кўрсатиб ўтилган.

Хўш, шунчалик экан нима қийинчилик бор деган савол туғилади??? Бизнинг ўзбекчилиқда бола туғилаверади рисқини худо беради деган нақл бор. Бу албатта тўғри фикр. Чунки оллоҳ ҳар бир яратадиган жонни ризқи билан яратади. Дунёвий томондан оладиган бўлсак ҳар бир фарзандни улғайиб, етук инсон бўлиб етишиши қанчалик машаққатли иш эканлигини барчамиз билсак керак.

Бугунги кунда 6 та сарсонгарчилик бир деганда ҳал бўлишига эътибор қаратамиз. Яъни:  
– шифохонадан туғилганлик ҳақидаги тиббий маълумотнома олиш;  
– ФХДЁ органида туғилганликни қайд этиш;  
– поликлиникага ҳисобга кўйиш;  
– бир марталик "суюнчи" пулинни олиш;  
– яшаш жойи бўйича рўйхатга кўйиш;  
– болани давлат боғасига навбатга қўйишни ФХДЁ идорасида биргина ариза тўлдириш билан амалга оширишингиз мумкин.

Ўз-ўзидан савол туғилади. Олдин қанақа эди??? Қоғозбозлик шунчалик кўплигидан Нима? Қачон? Кимга қандай хужжат беришни ҳам беришни билмай қолдик деган гапларни фуқароларимиздан эшитиб қоламиз.

Сизга янаям содда тилда тушунириш учун ушбу 6 та йўналишни сизга кўрсатаман. Туғруқхона - ФХДЁ бўлими -Оилавий поликлиника - Давлат хизматлари маркази - Маҳалла ва ИИБ - Давлат хизматлари маркази. Кўриб турибсизки ўз-ўзидан аҳоли орасида тушкун кайфият ва амалдаги сиёсатга норозилик вужудга келади.

Юқоридаги таклифдан олдин ҳолат қандай эди кўрамиз.

**Биринчидан,** Шифохонадан туғилганлик ҳақида тиббий маълумотномани олиш учун бола туғилган туғруқхонадаги шифокорга мурожаат қилиш керак бўлади.

**Иккинчидан,** Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 14 ноябрдаги 387-сонли қарори билан тасдиқланган “Фуқаролик ҳолати далолатномаларини қайд этиш Қоидалари”нинг 20-бандида *Тугилганликни қайд этиши учун: бола туғилганлиги тўғрисидаги тиббий маълумотномаси, ота-оналарининг паспортлари ёки уларнинг ўрнини босувчи хужжатлар, никоҳ тузилганлиги тўғрисидаги гербли гувоҳнома ёки оталикни белгилаши ҳақидаги ариза ёхуд никоҳда бўлмаган онанинг аризаси тақдим этилади.*

Шунингдек, 2013 йил 31 декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирининг



“Фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзиш органларида иш юритиш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида”ги 400-мҳ-сонли буйруғи билан тасдиқланган “Фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзиш органларида иш юритиш тартиби тўғрисида”ги ЙЎРИҚНОМАнинг 46-бандида Туғилишни қайд этиш учун туғилганлик ҳақидаги тиббий маълумотнома, ота-оналарнинг шахсини тасдиқловчи хужжатлар, никоҳ тузилганлиги ҳақидаги гувоҳнома ёки оталикни белгилаш ҳақидаги ариза ёхуд никоҳда бўлмаган онанинг аризаси тақдим этилиши, мазкур бандда кўрсатилган хужжатлар тақдим этилмаган ҳолларда ФХДЁ органи томонидан ариза берувчига далолатнома ёзувини қайд этиш рад қилинганлиги ҳақида асослантирилган маълумотнома берилиши кўрсатилган.

**Учинчидан,** бола туғилган жойдаги оиласи поликлиникага рўйхатга қўйиш учун, ота-онасининг паспорт нусхалари, боланинг туғилганлик ҳақидаги гувоҳномасидан нусха тақдим этилган ҳолда болага алоҳида карта очилади. Амалиётдан кўришимиз мумкинки, бола ота-онаси билан каерга бўлса ҳам кўчиб юради. Бунда боланинг поликлиникага қайтакайта рўйхатга қўйиш ўз-ўзидан муаммо бўлади.

**Тўртинчидан,** Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 23 майдаги “Ахолини ижтимоий ҳимоя қилиш соҳасида давлат хизматлари кўрсатишнинг айрим маъмурий регламентларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 327-сонли қарори билан тасдиқланган Фарзанд туғилганда бериладиган бир марталик нафақани тайинлаш бўйича давлат хизматлари кўрсатишнинг МАЪМУРИЙ РЕГЛАМЕНТИГа асосан Давлат хизматлари Давлат хизматлари марказлари ёки Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали (кейинги ўринларда — ЯИДХП) орқали бола туғилган кундан бошлаб 6 ой мuddат ичida мурожаат қилинган тақдирда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси (кейинги ўринларда — ваколатли орган) томонидан кўрсатилади ва нафақа пули нафақа етказиб бериш (топшириш) юклangan ташкилот томонидан тўланади. Ахолининг асосий қатлами бугунги кунда Ягона интерактив давлат хизматлари порталидан фойдаланишини билмаслигини ҳисобга олсанк ўз-ўзидан фуқаро давлат хизматлари марказига боришга мажбур бўлади.

**Бешинчидан,** бизга маълумки ҳар бир фуқарони рўйхатга қўйиш учун кетадиган вақтни кам деб бўлмайди. Бунда асосан давлат секторида хизмат қилаётган ходимлар жабр кўради.

**Олтинчидан,** Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Болаларни давлат мактабгача таълим муассасаларига қабул қилиш бўйича давлат хизматлари кўрсатишнинг МАЪМУРИЙ РЕГЛАМЕНТИ”га асосан эндиликда болаларни мактабгача таълим муассасасига жойлаштиришда тўғридан-тўғри болалар боғчасига эмас давлат хизматлари марказларига бориш лозим бўлади.

Юкоридаги бюрократик сарсогарчиликларни олдини олиш мақсадида электронлаштириш тизими йўлга қўйилди. Бунда шуни кўришимиз мумкинки, эндиликда шунча сарсонгарчиликлар барҳам топиб, бола туғилиши билан электрон қайд этилиши билан, у ҳақидаги маълумотлар электрон тартибида ҳамкор ташкилотларга юборилади. Бу ўз-ўзидан фуқаролар эмас, хужжатлар ҳаракатланади тамойилига мос келади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг № 387-сонли қарори.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг № 327-сонли қарори.



## ЭҲТИЁЖМАНД ХОТИН-ҚИЗЛАРГА ДАВЛАТ ИЖТИМОИЙ ЁРДАМИНИ БЕРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ ШАРТНОМА МЕХАНИЗМИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШ ЗАРУРИЯТИ

Анварова Дилдора,  
Тошкент давлат юридик  
университети ўқитувчиси  
e-mail: hsti.anvarova@gmail.com

**Аннотация:** Мақолада эҳтиёжманд хотин-қизларга ижтимоий ёрдам тайинлаш тартибини соддалаштириши, ижтимоий ҳимоя қилиши соҳасидаги ортиқча тартиб-тамойилларни қисқартириши ҳамда давлат ижтимоий ёрдамини беришининг ижтимоий шартнома механизмини жорий қилиши зарурлиги асосланган ҳамда хорижий мамлакатларнинг бу борадаги тажрибаси таҳлил қилинади.

**Калим сўзлар:** хотин-қизлар ижтимоий ҳуқуқлари, эҳтиёжманд хотин-қизлар, ижтимоий ёрдам, тартиб-тамойиллар, ижтимоий ҳимоя, ижтимоий шартнома

Мамлакатимизда эҳтиёжманд хотин-қизларнинг давлат ва жамиятдан ижтимоий ёрдам олиш ҳуқуқи конституциявий ҳуқуқларидан ҳисобланади. Бугунги кунда эҳтиёжманд хотин-қизлар тоифасига ижтимоий ёрдамини бир қанча турлари кўрсатилмоқда ва улар турли давлат ёки фуқаролик жамияти институтлари томонидан, қонун ҳужжатлари ва идоравий ҳужжатлар асосида амалга оширилмоқда.

Бугунги кунда маҳаллаларда жорий этилган «Темир дафтари», «Аёллар дафтари», «Ёшлилар дафтари» механизmlари жорий этилган бўлиб, улар воситасида эҳтиёжманд аҳолига давлат ижтимоий ёрдамини бериш манзилли амалга оширилмоқда. Яъни мазкур “Дафтар” механизми давлат ва эҳтиёжманд фуқаро ўртасидаги ижтимоий ҳимоя бўйича келишувни акс эттирувчи институт ҳисобланади. Хусусан мазкур механизм ижтимоий шартноманинг бир кўринишидир. Шу ўринда Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг «Аёллар дафтари» тизмини таҳлил қиласак.

Мамлакатимизда «Аёллар дафтари» тизими Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 31 марта 145-сон қарори билан тасдиқланган «Аёллар дафтари» ни юритиш орқали хотин-қизлар муаммоларини тизимли равища ҳал этиш ва уларни ижтимоий кўллаб-қувватлаш тартиби тўғрисида Низомга мувофиқ юритилади<sup>1</sup>.

«Аёллар дафтари»га 30 ёшдан ошган ижтимоий эҳтиёжманд хотин-қизлар (иҳсиз, боқувчиси бўлмаган, ёлғиз оналар, ногиронлиги бўлган, ногирон фарзанди бор) хотин-қизлар киритилади.

Бизнингча бу жараёнда маҳаллардаги «Аёллар дафтари» га киритилмаган бирор ижтимоий эҳтиёжманд бўлган хотин-қизлар, ички ёки ташқи миграцияда юрган ва ҳозирда қайтиб келган хотин-қизлар, соғлиғи туфайли касалхонада бўлган хотин-қизлар, жазони ижро этиш муассасаларидан қайтиб келган хотин-қизлар, «Ёшлилар дафтари»дан чиқарилган, бирор айни пайтда эҳтиёжманд бўлиб турган 30 ёшдан ошган хотин-қизлар, «Темир дафтари»га киритилмаган эҳтиёжманд хотин-қизларнинг ижтимоий ҳимоясига алоҳида эътибор қаратилиши зарур.

Дунёдаги кўпгина мамлакатларда қабул қилинаётган давлат ва эҳтиёжманд фуқаро ўртасидаги ижтимоий ҳимоя бўйича келишувни акс эттирувчи давлат кўмагининг «ижтимоий шартнома» институти сўнгги йилларда кенг тарқалмоқда.

Замонавий юридик адабиётларда «ижтимоий шартнома» тушунчасига ижтимоий гурухлар ўртасидаги бир-бирларига бўлган ҳуқуқ ва мажбуриятлар тўғрисидаги расмий ва норасмий келишувлар тўплами деган таъриф берилган.

Жаҳон ҳамжамиятида эҳтиёжманд хотин-қизларга давлат ижтимоий ёрдамини бериш қуидагиларни ўз ичига олади:

- ижтимоий тўловлар ҳажмини ошириш;
- субсидиялар, грантлар, ваучерлар, имтиёзли кредитлар бериш;

1 Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.04.2022 й., 09/22/145/0253-сон <https://lex.uz/docs/5932671>



- солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни кечикитириш;
- суғурта тўловларини олиш шароитларини енгиллаштириш (ишсизлик учун, ижтимоий ва тиббий суғурта)<sup>1</sup>.

Бизнингча ушбу «ижтимоий шартнома» институтини ривожлантириш орқали камбағал ва эҳтиёжманд хотин-қизлар хуқуқ ва манфаатларини таъминланишига эришиш ҳамда иқтисодий қарамлик туфайли камситилган хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш уларни жамиятга интеграция қилиш келгуси тадқиқотларнинг устувор йўналишларидан бири бўлиши зарур.

Эҳтиёжманд хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг «ижтимоий шартнома» механизмини кенг жорий этиш ҳамда унинг самарали ишлашини таъминлаш муҳимдир. Бунда эҳтиёжманд хотин-қизларга камбағаллик ҳолатидан чиқиши учун мотивация бериш, тақдим этиладиган молиявий ва номолиявий ёрдам ҳамда хизматларнинг натижадорлигини ошириш муҳимдир.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР**

1. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.04.2022 й., 09/22/145/0253-сон;
2. Сергиенко Н. С. Социальная политика в условиях пандемии: опыт зарубежных стран //ББК 60.5 В57. – 2020. – С. 174.

---

<sup>1</sup> Сергиенко Н. С. Социальная политика в условиях пандемии: опыт зарубежных стран //ББК 60.5 В57. – 2020. – С. 174.



## DEMOKRATIYA VA HUQUQIY MADANIYAT

**Abdurahmonova Nodiraxon Xusnutdinovna**

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Ijtimoiy fanlar kafedrasи o'qituvchisi

**Izoh.** Bu mintaqada ro'y berayotgan global voqealar birinchi navbatda demokratiyani qaror toptirish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, shaxs va jamiyat huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Rivojlangan mamlakatlarda shakllangan liberal-demokratik g'oyalar va me'yoriy madaniy voqelik jamiyat taraqqiyoti modellari, shablonlardir. tadqiqot ishi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar.** Demokratik davlat, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, mustaqillik.

## ДЕМОКРАТИЯ И ПРАВОВАЯ КУЛЬТУРА

**Абдурахманова Нодирахон Хуснутдиновна**

Ташкентская медицинская академия  
Преподаватель кафедры общественных наук

**Аннотация.** Глобальные события, происходящие в этом регионе, в первую очередь направлены на установление демократии, обеспечение прав и свобод человека, формирование правовой культуры личности и общества. Либерально-демократические идеи и нормативно-культурная реальность, сформированные в развитых государствах, являются моделями общественного развития, шаблонами, по которым изучалась научно-исследовательская работа.

**Ключевые слова.** Демократическое государство, политическое, экономическое, культурное, независимость.

## DEMOCRACY AND LEGAL CULTURE

**Abdurakhmanova Nodirakhon Khusniddinovna**

Tashkent Medical Academy  
Lecturer of the Department of Social Sciences

**Abstract.** The global events taking place in this region are primarily aimed at establishing democracy, ensuring human rights and freedoms, and forming a legal culture of the individual and society. Liberal-democratic ideas and normative-cultural reality formed in developed countries are models of social development, templates, according to which research work was studied.

**Keywords.** Democratic state, political, economic, cultural, independence.

### KIRISH

Dunyodagi demokratik davatlarda kishilarning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy ongini, bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi, chunki ularsiz demokratik rivojlanishni ta'minlash qiyin. Huquqiy madaniyat demokratik taraqqiyot, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolati, shaxs fuqarolik pozitsiyaning ifodasidir. Shunchaki huquqning o'zi emas, uning, integrativ xususiyatiga muvofiq, ijtimoiy munosabatlar bilan uzviyligi, siyosiy, iqtisodiy va madaniy faoliyat bilan dialektik uyg'unlikda kelishi qimmatli.

### MATERIALLAR VA METODLAR.

Huquqning integrativligi dolzarblashgan va ob'ektivlashgan joydagina demokratik qadriyatlar qaror topishi mumkin. O'zbekiston bugun demokratik yangilanishlarning yangi bosqichiga qadam qo'ygan, u mustaqillik yillarda to'plangan ijobiy tajribalarga tayanib, mamlakatni innovatsion rivojlanishtirishni strategik maqsadi qilib qo'ygan. Keyingi olti yil ichida yangi huquqiy madaniyatni alohida voqelik, fenomen sifatida shakllantirishga qaratilgan keng islohotlar amalga oshirildi, Yangi Konstitutsiya ishlab chiqildi. Bu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning Konstitutsiyaviy islohotlarga oid bildirgan to'rtta yo'naliishlarni, ya'ni 1) inson, uning hayoti, erkinligi, qadri, qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlari; 2) O'zbekiston ijtimoiy davlat; 3) erkin va adolatli fuqarolik jamiyat; 4) O'zbekiston insonparvar, demokratik huquqiy davlat,



degan tamoyillarni keltirish mumkin. Bundan tashqari, Prezidentimizning “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar i to’g’risida” (2016, 29 dekabry), “O’zbekiston Respublikasida 2020- 2030 yillarda Qishloq xo’jaligini rivojlantirish strategiyasi”kabi 600 dan ziyod Qaror va Farmonlari qabul qilindi. Ularda davlat institutlarini inson manfatlariga, huquq va erkinliklarini ta’minlashga xizmat qildirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy zaminini yanada kuchaytirish nazarda tutiladi.

### **MUXOKAMA VA NATIJALAR.**

Demokratik huquqiy davlat, insonparvar, ideal jamiyat barpo etish insoniyatning qadimdan orzusi bo’lib keladi. Insonning huquq va erkinliklari, huquqiy -madaniy voqelik ana shu ideal va orzular orqali tadqiq etib kelingan.

X.B.Boboevning fikriga ko’ra, huquqiy madaniyat huquq bilan madaniyat o’rtasidagi aloqlarda emas, balki o’zining va boshqalarning erkini anglab, ular bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishgan zahoti namoyon bo’ladi. Demak, erk va ijtimoiy munosabatlar huquqiy madaniyat namoyon bo’lishining negizlaridir. Savol uyg’onishi mumkin, nima uchun huquq va madaniyat fenomenlari emas, balki erk va ijtimoiy munosabatlar huquqiy madaniyatning negizlariga aylandi? Haqiqatan ham, huquqiy madaniyat negizlarini huquq va madaniyat fenomenlaridan izlash to’g’ri emasmi? Nima uchun tibbiyotshunoslar tibbiy madaniyatni tibbiyot va madaniyat uyg’unligidan, siyosiyosatshunoslar siyosiy madaniyat negizini siyosat va madaniyat uyg’unligidan izlashadiyu, huquqshunoslar huquqiy madaniyat negizini erk va ijtimoiy munosabatlardan izlashadi? Ijtimoiy taraqqiyot tarixi ko’rsatadiki, huquq va erk uzviy bog’langan voqeliklardir. Erk uchun kurash huquq uchun, huquq uchun kurash erk uchun kurash bo’lib kelgan. Ularni bir-biriga aynan, sinonim deb qarash ham uchraydi. Biroq erk huquqdan kengroq, u mudom huquqni o’z ichiga oladi. Masalan, huquq amal qilmaydigan joy(er-xotin aloqlari, shaxsiy hayotni yo’lga qo’yish kabilalar)da erk qatnashadi, inson ixtiyoriy xatti- harakatlarining ekzistentsial ifodasi sifatida keladi. Shuning uchun erk ixtiyoriy xatti- harakat, ixtiyoriy iroda, huquq esa rasmiy, ya’ni davlat tomonidan o’rnatilgan umummajburiy normalar hisoblanadi. Birinchisini bajarish yoki bajarmaslik mudom inson ixtiyorida, ikkinchisini bajarish yoki bajarmaslik inson ixtiyorida emas, u bu umummajburiy normalarga amal qilishi shart. Lekin bunday yondashuv huquqni mutalaqlashtirishga olib kelmasligi zarur, chunki inson ixtiyorilik tamoyillariga asoslanadigan erk bilan majburiylik tamoyiliga tayanadigan huquq o’rtasida yashaydigan ijtimoiy mavjudot. Uning ushbu xislati ijtimoiy munosabatlarda, ijtimoiy hayot qo’ynida yashashida mujassamdir. Huquqiy madaniyat va demokratiya uyg’unligi mavzusini tadqiq etganda, bizning fikrimizcha, huquq fenomeniga urg’u berish matiqan to’g’ri bo’ladi. Demokratiyaga oid falsafiy yondashuvlar va kontseptsiyalardagi huquqning o’rni, inson erki, ozodlik, mehnat huquqi, yashash huquqi, saylash va saylanish, davlat ishlarini olib borishda ishtiroti huquqi, hurfikrlik, ijod erkinligi kabilarga e’tibor qaratiladi. Aynan ular huquq falsafasining predmeti hisoblanadi va bizni ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar tomoniga og’ib ketishdan asraydi. Bizga demokratik yondashuvlar va kontseptsiyalardagi ijtimoiy-siyosiy voqeliklar emas, ulardagi inson huquqi va erkinliklariغا oid qarashlar zarur. Yangi O’zbekiston qishloqlari agrotuzilmalaridagi islohotlar aholidan huquqiy-madaniy faoliytni talab etayotgan bo’lsa-da , qishloqda sotsionormalarning ustuvor ekani huquqiy ong, huquqiy bilim va huquqiy ko’nikmalarning namoyon bo’lishiga xalaqt berayotgani kuzatiladi. Davlatimiz va hukumatimiz tomonidan agrosotsial munosabatlarni innovatsion o’zgartirish, ilg’or texnologiyalarni joriy etish, yangi normalar va xalqaro standartlarni joriy etish amalga oshirilmoqda, bugun o’zbek qishloqlari hayotida urbanizatsiya jarayonlari ketmoqda, ular sivilizatsiyaviy rivojlanishga o’tmoqda. Lekin qishloq aholisining huquqiy madaniyatida transformatsiya jarayonlari juda sekin kechmoqda. Goho bu jarayonlarda teotransformatsiya yetakchilik qiladi. Jamiyatimizda dinga, islomiy tartiblar va shariat qonunlariga bo’lgan qiziqishning oshib borayotgani tufayli qishloq aholisi ongi ham ushbu o’zgarishlar ta’sirida qolmoqda. To’g’ri, teotransformatsiya ijtimoiy hayotimizda ustuvor o’rinni egallayotgan yo’q, biroq kishilar ongidan ular tobora chuqurroq joy olayotganini ham inkor qilib bo’lmaydi. Aslida teotransformatsiya qishloq hayotida sotsionormalarning ustuvorligiga hamohangdir. Qishloq aholisi ichida huquqiy normalarga ko’proq e’tibor beradigan, ular imkoniyatlaridan foydalanishga intiladigan shaxslar, guruhlar ham mayjud. Ularga fermerlar, tadbirkorlar, ziyolilar kiradi. Respondentlarning javoblari va aholi o’rtasida olib borilgan intervjuylar ko’rsatadiki, hech kim huquqiy normalarga, qonunlarga qarshi emas, ammo ularning ishlashini ta’minlashda va ulardan foydalanishda muammolar mavjud. Masalan, o’z huquq va



erkinliklарини талаб этадиган fermer yoki tadbirkorlarning aksariyati bank kredit tizimi faoliyatidagi tanish-bilishlikdan norozi, ichki ishlar organlaridagi sansalorlik, bedillik, hatto inson arzlari va tashvishlariga befarqliq ularning asabiga tegadi. Ular ichida ushbu illatlarni va to'siqlarni yengishga intiluvchi sub'ektlar ham bor, ammo ularda huquqiy savodxonlik va yuridik ko'nikma yetishmaydi. Ularning ijtimoiy-huquqiy faolligi sotsionormalar ta'sirida qolib ketadi. Ba'zan esa teotransformatsiya xalaqit beradi. Qishloq aholisining huquqiy-madaniy faolligini oshirish uchun ularning pog'onalar (1-pog'ona, 2-pog'ona, 3-pog'ona), modellari (indifferent model, noloyal model, liberal model) va huquqiy- tarbiyaviy, huquqiy targ'ibot ishlarining innovatsion mexanizmlari aniqlandi. Pog'onalar, modellar va mexanizmlar dialektik uyg'unlikda, qishloq aholisining etnodifferentsial va etnosotsial belgilariga muvofiq, huquqiy ongga ta'sir etadi.

Yangi O'zbekiston innovatsion rivojlanish yo'lidan bormoqda, bu jarayon ustqurmaning barcha yo'naliшlariga ta'sir etishi aniq. Shunday ekan, avvalo innovatsion rivojlanish uzlusiz, mudom transformatsiyaga uchrab boradigan, fluktatsion kechishga moyil jarayon ekanini unutmasligimiz kerak. Bu esa huquqiy madaniyatni yuksaltirishni ham uzlusiz jarayon sifatida anglashga undaydi.

### XULOSA.

Xulosa urnida shularni aytish mumkinki, “huquqiy madaniyat” tushunchasining ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va definitiv talqinlari “huquq” va “madaniyat” kategoriyalari, voqeliklari sintezining ifodasidir. Unda huquq fenomeni ustuvordir. Ammo, huquqning mohiyatan ijtimoiy madaniy voqelik ekanidan kelib chiqsak, huquq pirovard natijada madaniy taraqqiyotga xizmat qilishini anglaymiz. Demak, madaniyat va ijtimoiy madaniy taraqqiyotga xizmat qilish huquqiy madaniyatning pirovard natijasidir. Ushbu kontseptual fikr huquq fenomenini, shu jumladan, huquqiy madaniyatni ham, ijtimoiy madaniy taraqqiyot maqsadi orqali idrok etishga, o'rganish va baholashga undaydi. Ijtimoiy madaniy taraqqiyotga yo'naltirilmagan huquq aksilmadaniy, aksilinsoniydir. Xuquq fenomenining ijtimoiy madaniy taraqqiyotga ta'siri demokratiya, demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari, boshqaruv tizimlarini xalqchillashtirish, hurfikrlik, yashash va mehnat huquqi kabi yuridik voqeliklar bilan bog'liqligi orqali ro'y beradi. Ushbu voqeliklarni o'rganmay, ularning ijtimoiy munosabatlarga, kishilar ongi, turmush tarzi, oilaviy hayoti, fuqarolik pozitsiyasi, e'tiqodi, burchi va vazifalariga ta'sirini kuzatmay huquqiy madaniyatni yetarli darajada yoritib bo'lmaydi. Huquqiy madaniyat demokratiyanı taqozo etganidek, demokratiya ham huquqiy madaniyat orqali ob'ektivlashadi, real ijtimoiy munosabatlarga aylanadi. Huquqiy madaniyatsiz demokratiya, demokratiyasiz huquqiy madaniyat yo'q.

### BIBLIOGRAFIYA:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Конститутциявий комиссия аъзолари билан учрашувдаги нутқи //”Янги Ўзбекистон”, 2022, 21 июнъ).
2. Платон. Государство. - Москва : АСТ, 2022. 448 с.; Аристотель. Сочинения в четырех томах. Том 3. - Москва : Мысль, 1981.612 с.; Цицерон. Диаологи. О государстве. О законах. - Москва : “Наука”, 1966.. 228 с.;
3. История китайской философии. - Москва : Прогресс, 1988. 508 с.;
4. Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шахри. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашр., 1993. 286 б.;
5. Ибн Сино. Избранные философские произведения. - Москва : Гл. ред. Восточной литературы, 1993. 603 с.; Фаззолий, Имом Ҳомид. Иҳёу улумид дин. МУНИР нашриёти, 2021; 216 б.;
6. Мусулмон эрнинг аёли ва оиласи олдидағи вазифалари. Нашрга тайёрловчилар А.Ахмад, И.Нуриллоҳ. - Тошкент: Мовароуннаҳр, 2020. 382 б.;
7. Мусулмон аёлнинг эри ва оиласи олдидағи вазифалари. Нашрга тайёрловчилар А.Ахмад, И.Нуруллоҳ. - Тошкент: Мунир, 2021. 432 б.; Локк Дж. Два трактата о правлении. Сочинения в 3 томах. Том 3. - Москва : Мысль, 1998. 578с.;
8. Кант И. Сочинения в шести томах. Том 4. Часть 1,2. - Москва : Мысль, 1974. 534 с.;
9. Гегель. Философия права. - Москва : Мысль, 1979. 602 с.; Дюркгейм Э. Избранные произведения. - Москва : “Наука”, 1993. 508 с.; Вебер М. Избранные произведения. - Москва : Наука, 1986. 636 с.;
10. Даль Р. Введение в экономическую демократию. - Москва : “Наука” СП ИКВА , 1991. 148 с.; Хайек Ф.А. Общество свободных.- Лондон, ОРИХЛ, 1990. 308 с.; 2004. 244 с.;
11. Фромм Э. Здоровое общество. - Москва : Изд.АСТ, 2019. 526 с. Тоффлер Э. Метаморфози власти. - Москва : Изд. АСТ, 2004. 669



## АЁЛЛАРНИНГ ИМТИЁЗЛИ ШАРТЛАРДА ЁШГА ДОИР ПЕНСИЯ ОЛИШ ХУҚУҚЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

**Мирзаев Фарходжон Тахирович,**  
Судъялар олий кенгаши хузуридаги  
Судъялар олий мактаби тингловчиси

Телефон: +99891 111-77-78

Fargohjon1117778@gmail.com

**Хожамуратов Камалатдин Сифадинович**  
Тошкент вилояти Нурафшон туманлараро

маъмурий судининг судьяси

Телефон: +99893 486-87-87

**АННОТАЦИЯ:** Ҳозирги кунда мамлакатимизда аёлларнинг гендер тенглигига жиддий эътибор берилмоқда. Мазкур мақола мамлакатимизда аёлларнинг имтиёзли шартларда ёшга доир пенсия таъминотига оид ўзига хос хусусиятларини очиб беради ва уларга янада енгилликлар берилиши лозимлигини янада асослаб беради.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** ёшга доир пенсия, аёллар, иш стажи, пенсия олиш ҳуқуки, кафолатлар.

Сўнгги йилларда Ўзбекистон Республикасида хотин–қизларнинг гендер тенглиги масалаларида жиддий эътибор берилмоқда.

Хусусан, 2022-2023 йилги ўкув йилидан бошлаб магистратура босқичида ўқишга қабул қилинган барча аёлларга тўлов контракт пуллари давлат томонидан тўлиқ тўлаб берилиши йўлга қўйилди.

Бундан ташқари, аёллар давлат бошқарув органларида, суд ҳокимияти органларида ва бошқа қатор соҳаларда мансаб даражаларида эришаётганликлари бунинг яққол мисолидир.

Шу жиҳатдан, аёлларнинг меҳнат муносабатларидаги кафолатлар ҳам алоҳида ўрин тутади.

Жумладан, Меҳнат кодексининг 224-238-моддалари айнан аёлларга ва оиласий вазифаларни бажариш билан машғул шахсларга бериладиган қўшимча кафолатларни ўз ичига олган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 марта “Хотин-қизларнинг меҳнат ҳуқуқлари кафолатларини янада кучайтириш ва тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлашга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4235-сонли қарорига асосан 2019 йил 1 майдан бошлаб аёллар меҳнатини муайян соҳа ёки касбларда қўллаш бўйича тақиқлар бекор қилиниши;

тавсиявий характердаги аёллар соғлиғига салбий таъсир этиши мумкин бўлган соҳа ёки касблар рўйхати тасдиқланиши;

бона парваришлиш таътилининг камида уч ойи ота томонидан фойдаланилган тақдирда, ота ёки онадан бирига Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг 234-моддаси тартибида қўшимча бир ой нафақа тўланадиган бола парваришлиш таътили берилиши;

икки ёшга тўлмаган фарзандини тарбияловчи ота-оналарнинг бирига уларнинг иш пайтидаги дам олиш ва овқатланиш, болани овқатлантириш учун бериладиган танаффуслар ҳисобидан иш берувчи билан келишган холда кун давомида фойдаланиладиган танаффус вақтини белгилаш ҳуқуки берилиши;

аёлларнинг пенсия ёшига тўлганлиги ёки қонун ҳужжатларига мувофиқ ёшга доир давлат пенсиясини олиш ҳуқуки вужудга келганлиги сабабли улар билан тузилган номуайян муддатли меҳнат шартномасини 60 ёшга тўлгунга қадар ёки муддатли меҳнат шартномасини муддати тугагунга қадар иш берувчининг ташабbusiga кўра бекор қилиш тақиқланиши;

эркак ва аёллар ҳуқуқлари тенглигининг бузилиши билан боғлиқ ишларнинг судларда кўриб чиқилишида аёлларга адвокатлар томонидан кўрсатиладиган юридик хизмат учун ҳақ уларнинг хоҳишига кўра давлат ҳисобидан қопланиши белгилаб берилди.

Ўзбекистон Республикаси “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Конуни талабларига асосан ҳам аёлларнинг эркакларга нисбатан 5 йил олдин пенсия чиқиш ҳуқуки кафолатланган.

Жумладан, Конуннинг 7-моддасига биноан эркаклар 60 ёшга тўлганда ва иш стажлари



камида 25 йил бўлган тақдирда ҳамда аёллар 55 ёшга тўлганда ва иш стажлари камида 20 йил бўлган тақдирда умумий асосларда ёшга доир пенсия олиш ҳукуқига эга бўладилар.

Худди шу каби имтиёзлар ушбу Қонуннинг бошқа моддаларида ҳам кўрсатиб ўтилиб, унга кўра, Қонуннинг 11-моддаси “а” бандига кўра, еrosti ишларида, меҳнат шароити ўта заарали ва ўта оғир ишларда тўлиқ иш куни давомида банд бўлган ходимлар (2-сонли рўйхат, I қисм): эркаклар иш стажи камида 20 йил бўлиб, бундан камида 10 йили кўрсатиб ўтилган ишларга тўғри келган тақдирда ҳамда аёллар иш стажи камида 15 йил бўлиб, бундан камида 7 йилу 6 ойи кўрсатиб ўтилган ишларга тўғри келган тақдирда охирги иш жойидан қатъи назар, ушбу Қонуннинг 7-моддасида белгиланган ёшни 10 йилга қисқартирилган ҳолда пенсия олиш ҳукуқига эга бўладилар.

Шунингдек, Қонуннинг 12-моддаси “б” банди мувофиқ меҳнат шароити заарали ва оғир ишларда тўлиқ иш куни давомида банд бўлган ходимлар (3-сонли рўйхат, I қисм): эркаклар иш стажи камида 25 йил бўлиб, бундан камида 12 йилу 6 ойи кўрсатиб ўтилган ишларга тўғри келган тақдирда ҳамда аёллар — иш стажи камида 20 йил бўлиб, бундан камида 10 йили кўрсатиб ўтилган ишларга тўғри келган тақдирда охирги иш жойидан қатъи назар, ушбу Қонуннинг 7-моддасида белгиланган ёшни 5 йилга қисқартирилган ҳолда пенсия олиш ҳукуқига эга бўладилар.

Бундан ташқари, Қонунда болалиқдан ногиронлиги бўлган фарзандларнинг оналари уларни саккиз ёшгача тарбиялаган бўлса - иш стажи камида 20 йил бўлган тақдирда умумбелгиланган ёшда 5 йил олдин имтиёзли шартларда ёшга доир пенсия олиш ҳукуқига эга бўлиши назарда тутилган.

Бироқ, мазкур Қонунда эътибор берадиган ва умуман ишламайдиган бир норма мавжуд.

Унга кўра, Қонун 12-моддасининг “л” бандига мувофиқ ихтисослашган тиббий муассаса шифокорлари ва ўрта тиббий ходимлари маҳсус иш стажи шаҳарчалар, қишлоқлар ва овулларда камида 25 йил ва шаҳарларда камида 30 йил бўлган тақдирда (3-сонли рўйхат 8-қисм) охирги иш жойидан қатъий назар, ушбу Қонуннинг 7-моддасида белгиланган ёшни 5 йилга қисқартирилган ҳолда пенсия олиш ҳукуқига эга бўлишилиги кўрсатиб ўтилган.

Қонуннинг ушбу моддаси умуман амалиётда ишламасдан келмоқда.

Чунончи, аёл киши 17-18 ёшида мактабни тамомлаб, Тиббиёт олий таълим муассасасига ўқишига киради, 23-24 ёшда Тиббиёт соҳасидаги таълимни тугаллайди (ушбу таълим муассасасида ўқиш даври 6 йилни ташкил этади) ва 50 ёшгача жами бўлиб бола парваришилаш таътилини ҳам қўшиб ҳисобланганида 26, 27 йил ихтисослаштирилган муассасаларда шифокор вазифасида ишлаши мукинлиги, арифметик ҳисобланганида шаҳарчалар, қишлоқлар ва овулларда 25 йил ва шаҳарларда 30 йиллик талабни умуман тўплашнинг имкони мавжуд эмаслиги кўриниб турибди. Чунки, аёл шифокорлар бир нафар фарзанди учун уни уч ёшга тўлгунига қадар бола парваришилаш таътили берилиб, ушбу иш стажи маҳсус иш стажига қўшилмайди.

Демак, аёл шифокорлар 25 ёки 30 йиллик иш стажни тўплаш учун 54-55 ёшга кириши лозим бўлади. Ваҳоланки, 54 ёки 55 ёшда умумий аосларда ҳам пенсияга чиқиш мумкин. Мазкур ҳолатда Қонуннинг 12-моддаси “л” банди умуман ишламайди ва керак ҳам эмас. Бунда ушбу банд қаҷон ишлайди ва қаҷон аёллар ушбу имтиёздан фойдаланиб имтиёзли шартларда пенсияга чиқишлари мумкин. Мазкур ҳолатда қандай қилиб талаб қилинган 25 ёки 30 йиллик талаб бажарилиши мумкин.

Кўриниб турибди, ушбу бандга қатъий ва зудлик билан ўзгартириш киритиш лозим.

Бундан ташқари, соҳада аёл ва эркаклар ҳам ишлайди, Қонуннинг бошқа моддалари ва бандларида аёл ва эркак кишининг маҳсус иш стажи алоҳида белгиланган ва ҳисобланган бўлса, мазкур модданинг “л” бандида умумий қилиб кўрсатилган. Ушбу ҳолатда ҳам қонунда аёлларнинг ҳукуқлари эътиборга олинмаган. Ваҳоланки, аёллар бола парваришилаш таътилида бўлиши, эркак кишига нисбатан меҳнат ҳукуқлари юқори туриши Меҳнат кодексида ҳам кўрсатиб ўтилган.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрь кунги “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳукуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги ЎРҚ-562-Қонуннинг 6-банди талабларига кўра, давлат хотин-қизлар ва эркакларга шахсий, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳукуқларни амалга ошириш чоғида тенг ҳукуқлиликни кафолатлайди.

Давлат хотин-қизлар ва эркакларга жамият ҳамда давлат ишларини бошқаришда, сай-



лов жараёнида тенг иштирок этишни, соғлиқни сақлаш, таълим, фан, маданият, мехнат ва ижтимоий химоя соҳаларида, шунингдек давлат ва жамият ҳаётининг бошқа соҳаларида тенг ҳуқук ҳамда имкониятлар таъминланишини кафолатлади.

Хотин-қизлар ва эркаклар ўртасида ҳақиқий тенгликка эришиш, жамият ҳаётининг барча соҳаларида уларнинг иштирокини кенгайтириш, жинс бўйича бевосита ва билвосита камситишни бартараф этиш ҳамда уларнинг олдини олиш мақсадида давлат томонидан гендер сиёсати амалга оширилишини таъминлашга доир вақтинчалик маҳсус чоралар кўрилади.

Мазкур ҳолатлардан келиб чиқиб, “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Қонуни 12-моддасининг “л” бандига қуйидаги ўзгартиришларни киритиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Хусусан, “ихтисослашган тиббий муассаса шифокорлари ва ўрта тиббий ходимлари маҳсус иш стажи шаҳарчалар, қишлоқлар ва овулларда эркаклар камида 25 йил ва шаҳарларда камида 30 йил бўлган такдирда, аёллар 20 йил ва шаҳарларда камида 25 йил бўлган такдирда (3-сонли рўйхат 8-кисм) охирги иш жойидан қатъий назар, ушбу Қонуннинг 7-моддасида белгиланган ёшли 5 йилга қискартирилган ҳолда пенсия олиш ҳукуқига эга” деган таклиф киритиш ва ўзгартирилиши лозим. Шунда аёллар ва шу каби соҳада ишловчилар мутахассисликлари бўйича ўз вақтида 50 ёшдан ва эркаклар 55 ёшдан пенсияга чиқиш ҳукуқига эга бўлади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Қонуни, 1993 йил, ЎРҚ-938-II-сон, 7, 11 ва 12-моддалар.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 592-сонли қарори билан тасдиқланган “Давлат пенсияларини тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисида”ги Низом, 2022 йил, 12-банди.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқук ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни, 2019 йил, ЎРҚ-562-сон, 6-банди.

# **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 1-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович  
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович  
Саҳифаловчи: Шахрам Файзисв**

**Эълон қилиш муддати: 31.03.2023**

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000